

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNAVATSION
TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH
Eshmirzayev G'ulomjon Yusupovich**

JDPI o'qituvchisi

Abstract: *This paper analyzed by the effective application of innovative pedagogic technologies used to strengthen students' knowledge of students in higher educational institutions. And their importances in the formation of practical skills of students are investigated in the learning process.*

Аннотация: *В данной статье описывается исследование инновационных образовательных технологий и педагогических принципов, эффективное использование современных интерактивных методов обучения в учебном процессе. Проанализированы эффективные методы инновационных технологий в укреплении знаний студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. Формирование устойчивых теоретических знаний, профессиональных навыков повышает эффективность образовательного процесса, с этой целью разработаны предложения и рекомендации по новым педагогическим технологиям в учебном процессе.*

O'zbekiston Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga asosan oliy o'quv yurtlarini boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. SHuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik asoslari o'rganilib, o'quv jarayonida zamonaviy-interfaol o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini tadqiq etish shu kunning dolzarb muommolaridan hisoblanadi.

Ushbu maqolada oliy tahlim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bilimlarini mustahkamlashda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning qo'llash uslublari tahlil qilinib, ulardan talabalar kompetentligini rivojlantirishda samarali foydalanish maqsad qilib qo'yilgan.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy tahlim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Hozirgi kunda interfaol tahlil texnologiyalaridan ommaviylari quyidagilar sanaladi: interfaol metodlar ("Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat", "Musobaqa-bellashuv" va b.); strategiyalar ("Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval" va h.k.); grafik organayzerlar ("Baliq skeleti", "BBB", "Kontseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Nilufar guli", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?") va boshqalar.

Tahlil sifatini oshirish uchun texnik vositalar: audio-video, kino materiallari, komp'yuterlar, videoproektor, slaydlar, badiiy asarlardan parchalar; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan interfaol metodlardan o'rinli foydalanib kelishmoqda. Xususan, **ma'ruzalarda**: **1. Taqdimot** – qoidalar, jadvallar, asosiy tushunchalar namoyish etiladi va izohlanadi. **2. Munozara (bahs)** – erkin va har xil fikr bildirish asosida bilim egallash. **3. Muammoli savol va vazifalar** – ilmiy-nazariy ma'lumotlar bayon etilishida muammoli savol va vazifalar tahlil etiladi. **4. BxBxB** – ma'ruza (oxirida) so'nggida bilgan, bilib olgan va bilishni hojlagan ma'lumotlar jadvali to'ldiriladi. **5. Tezkor savol-javob (Blits - so'rov)** - asosiy savol tushuntirilganda yoki mavzu oxirida aniq savollarga qisqa va lo'nda javoblar olish.

Amaliy mashg'ulotlarida: **1. Aqliy hujum** – tez va har xil fikrlarni jamlash va to'g'risini aniqlash. **2. Muammoli vaziyatlar** – ko'nikmagan, har bir talabning o'ziga xos bilim va dunyoqarashi, to'qirligi aniqlanadi. **3. Ilerarxiya** – oddiydan-murakkabga, aniqdan noaniqqa va ularning teskarisini amalga oshirish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish. **4. Muloqot** – tinglovchilarning diqqatini o'ziga jalb etish, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, erkin va mustaqil fikr almashinadi. **5. Muhokama** – biror nazariy qarash, g'oya, fikr, ta'limot haqida har kim o'z qarashlarini bayon etadi. **6. SHaxsiy fikr** – aniq vaziyat, jarayon va olingan xulosa to'g'risida fikr bildiradi, o'zgaralar fikri bilan solishtiradi va yutuq-kamchiliklarni aniqlaydi. **7. Klaster** – asosiy tushuncha tarmoqlarga bo'lib chiqiladi. **8. Pinbord** – taxtada yozib, yutuq-kamchiliklar tahlil qilinadi. **9. Boshqaruv** – ma'lum faoliyatni tashkil etish jarayonida ishtirokchilarni boshqarish ko'nikmalari aniqlanadi. **10. Keys – stadi** – aniq vaziyat, hodisalarning mohiyatini tahlil etish va aniqlash.

"T-chizmalar" usuli.

Tahlilning anhanaviy shakli		Tahlilning noanhanaviy shakli	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

"V"	"_"	"Q"	"?"
"Ha" o'qiganlaringiz dan aniq bilgan bilaman deb agan ma'lumot.	"Manfiy" o'qiganlarin giz, bilganlarin gizga qarama- shi ma'lumot.	"Musbat" o'qiganlarin giz orasida uchun yangi gan umot	"Savol" o'qiganlaringiz dan siz uchun unarli bo'lmagan yoki haqda ko'proq narsa hni istagan ma'lumot.

O'quv keyslari.

O'quv muammoli vaziyat (o'quv keysi) tashkil etishning maqsadi guruh xonasida aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakllikni hisobga olgan holda muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iboratdir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror to'tirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida tahlil samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005 y.
2. Ishmammedov R., Mirsolieva M. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar (metodik qo'llanma). – Toshkent-2014
3. MD Ismatullaevna, EG Yusupovich. [THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL 'ROCESS](#)- Euro'ean Journal of Research and Reflection in ..., 2019